

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI
MARKETING
SAVDO
BIZNES
TARAQQIYOT
INNOVATSIYA
WATUJ
BANDUJ

№7 – SON

2025-YIL, IYUL

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN  ACCESS



Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 31 IYUL, 2025-YIL

JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 372 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-iyulda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ СРЕДСТВ.....	6
Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
KOMPANIYALAR EKOMARKETING STRATEGIYASIDA “YASHIL” BRENDING TENDENSIYALARI.....	13
Sa’dulloyev Habibullo Ibodullo o‘g‘li	
МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД К РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ УСТОЙЧИВОГО УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ	21
Ренкер Клеменс, Багиев Георгий Леонидович, Икрамов Мурат Акрамович	
XORAZM VILOYATIDA SANOATNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING DINAMIKASI TAHLILI.....	29
Ibragimov Jaxongir Baxodirovich	
O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	36
Astanov Sherzod Rustamovich	
HALOL STANDARTLARINING MAZMUN-MOHİYATI, ASOSIY TALABLARI VA IJTIMOİY-IQTISODIY TUSHUNCHALARI	45
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
QURITILGAN MEVALAR EKSPORTIDA MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	56
Yunusov Baxodir Marisovich	
KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN STRATEGIK MARKETING YONDSHAUVLARI.....	64
Xidirov Sherzod Olimovich	
BIZNES JARAYONLARNING LOGISTIKA AUTSORSINGI	70
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA YASHIL MOLIYALASHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI	78
Oripov Ilhom Abdullayevich	
NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH	90
Inamov Farhodjon Ikrom o‘g‘li	
“YASHIL” SANOAT SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	97
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
TIJORAT BANKLARI FAKTORING XIZMATLARI ASOSIDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	108
Jalilov Azizbek Baxodir o‘g‘li	
MINTAQAVIY IJTIMOİY-IQTISODIY TIZIMDA SAMARADORLIK VA SIFATNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI	117
Jumanov Sherzod Norboyevich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MAQSADLI AUDITORIYANI ANIQLASHDA SUNIY INTELLEKT VOSITALARI VA ULARDA MARKETING STRATEGIYALARINI QO‘LLASH.....	126
Maxmudov Faxriddin Umarovich	

ELEKTRON TIJORATDA TESKARI LOGISTIKANING INNOVATSION MODELLARINI QO‘LLASH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI.....	134
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li	
MINTAQADA QURILISH ISHLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	150
Jumanov Sherzod Norboyevich	
FROM PARTNERSHIP TO STRATEGIC ALLIANCE: MAPPING FUTURE COLLABORATION BETWEEN INDIA AND UZBEKISTAN	159
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	167
Alimardonov Asrorjon Alimardonovich	
ZIYORAT TURIZMI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O‘ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Salomov Temurbek Boburmirzo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON AGROSANOAT ZANJIRLARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMLARINI JORIY ETISHGA TASHQI MUHIT OMILLARI TA‘SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH	180
Djumayev Asror Almamatovich	
TRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONSEPTSIYASI	190
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna	
SOG‘LIQNI SAQLASH TA‘LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	198
Jonibekov Jasurbek Jonibekovich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF LOGISTICS SERVICES IN FREE ECONOMIC ZONES. STRATEGIC CONCEPT ON THE EXAMPLE OF JIZZAK FEZ	204
Mukhiddinov Muminjon Shavkiddin ugli	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISHNING TIBBIYOT OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TA‘LIM SIFATIGA TA‘SIRI.....	213
Nazarova Fotima Xakimovna, Jonibekov Jasurbek Jonibekovich	
MAKROIQTISODIYOTDA ISTE‘MOL TALABI NAZARIYASI VA UNING MARKETING TADQIQOTLARIDA QO‘LLANILISHI.....	219
Rustamov Narzillo Istamovich	
O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA MOLIYAVIY TAHDIDLARNI BOSHQARISHDA BILIMLAR DARAJASINING ROLI	227
Sadibaqosov Suxrob Toshpo‘lot o‘g‘li	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSION OMILLARNING TA‘SIRINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	235
Sapayeva Fazilat Norbayevna	
MODALAR BIZNESIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi, Yuldasheva Dilorom Shaxzod qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI	248
Tuychiyev Alisher Jurayevich, Kurbanbayeva Zuxra Abduraxmon qizi	
СТИМУЛИРОВАНИЕ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	257
Матлюбов Хуршид Жамшидович	

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	266
Самединов Тимур	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BIG DATA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABA FIKRLARINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI OPTIMALLASHTIRISH	279
Akbarov Nodir Gafurovich	
BANK XIZMATLARI MARKETINGIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASHNING INNOVATSION IMKONIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	287
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH INNOVATSION YONDASHUVLAR VA INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV METODOLOGIYASI.....	295
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi	
KORXONALARDA RAQOBAT RAZVEDKASI TIZIMIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODOLOGIK YONDASHUVLARNI RIVOJLANTIRISH	304
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
ZIYORAT TURIZMI BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	311
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MODDIY OQIMNI BOSHQARISHDA LOGISTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-TASHKILIY MEXANIZMI	315
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI	322
Gozieva Mokhira Rustamovna	
YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH	330
Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich	
BOJXONA TIZIMIDA TRANSPORT LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	335
Kucharov Abror Sabirjanovich, Alijanova Komila Toxir kizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BYUDJETLASHTIRISHDAN FOYDALANGAN HOLDA BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	344
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETINGDA SUN'IY INTELLEKT	352
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA EKSPORT HAJMINI OSHIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYASI AHAMIYATI.....	358
Akramov Tohir Abdirahmonovich	
MINTAQALAR INVESTITSION SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	364
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	

NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

Inamov Farhodjon Ikrom o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti doktoranti

E-mail: fred.inamov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqada investitsiya faoliyatini faollashtirish jarayonini modellashtirishga oid uslubiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Investitsiya faolligining oshishi hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish choralari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, investitsiya jarayonining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik samaradorligi tahlil qilinib, mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilashning asosiy yo'nalishlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: investitsiya faolligi, mintaqaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, ekologik muhit.

Аннотация

В данной статье анализируются методологические подходы к моделированию процесса активизации инвестиционной деятельности в регионе. Рассматривается влияние роста инвестиционной активности на устойчивое экономическое развитие территорий, существующие проблемы и меры по их устранению. Кроме того, проводится анализ социальной, экономической и экологической эффективности инвестиционного процесса, а также предлагаются основные направления по улучшению инвестиционного климата в региональной экономике.

Ключевые слова: инвестиционная активность, региональная экономика, устойчивое развитие, экономическая эффективность, социальная эффективность, экологическая среда.

Abstract

This article analyzes methodological approaches to modeling the process of enhancing investment activity in the region. It examines the impact of increased investment activity on the sustainable economic development of territories, identifies existing challenges, and proposes measures to address them. Furthermore, the social, economic, and environmental efficiency of the investment process is analyzed, and key directions for improving the investment climate in regional economies are suggested.

Keywords: investment activity, regional economy, sustainable development, economic efficiency, social efficiency, environmental environment.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi sharoitida investitsiya faoliyatini faollashtirish va uni samarali boshqarish har bir davlatning iqtisodiy siyosatida asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning hududlari uchun investitsiya faoliyatini kuchaytirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va

raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jahon banki va xalqaro moliya institutlari hisobotlariga ko'ra, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish — iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, bandlik darajasini oshirish va aholining turmush farovonligini yaxshilash uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlarda investitsiya faoliyatini faollashtirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni investitsiya faoliyatini samarali boshqarish va uni rivojlantirish uchun amaliy mexanizmlar hamda aniq vazifalarni belgilab bergan [4].

Namangan viloyati respublikaning iqtisodiy jihatdan rivojlanib borayotgan hududlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror ta'minlashda investitsiya oqimini jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Mintaqaning geografik joylashuvi, tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari hamda resurslar bilan ta'minlanganligi hududning investitsiya salohiyatini yanada oshiradi. Shunga qaramay, viloyatda investitsiya faoliyatini faollashtirish bo'yicha samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish zarurati mavjud. Ayniqsa, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy modellari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish orqali mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

O'zbekiston iqtisodiy modernizatsiya bosqichiga o'tayotgan hozirgi davrda mintaqaviy investitsiya faoliyatining faollashtirilishi barqaror rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biriga aylanmoqda. Namangan viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlar investitsion muhitning kompleks bahosi va omillarni modellashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa mintaqaviy tafovutlar, sarmoya oqimining notekis taqsimlanishi, mahalliy infratuzilmaning rivojlanish darajasi kabi masalalarni chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi — Namangan viloyati misolida investitsiya faoliyatini faollashtiruvchi omillarni aniqlash hamda ularning investitsiya oqimiga ta'sirini ekonometrik modellashtirish orqali baholashdan iborat. Mazkur yondashuv hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya faoliyatini faollashtirish va uni samarali boshqarish jarayonlarini tadqiq etishda xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab ilmiy ishlar mavjud bo'lib, ushbu sohadagi tadqiqotlar metodik va nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash va investitsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha Prezident qaror hamda farmonlari investitsion faoliyatni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda [4]. Jahon banki va boshqa xalqaro moliya institutlari tomonidan chop

etilgan hisobotlarda investitsion muhit hamda investitsiya faoliyatini samarali boshqarishning xalqaro tajribasi keng yoritilgan bo'lib, ularning tahlili asosida investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning ilg'or mexanizmlari taklif etilgan [5].

Xalqaro iqtisodiyot va investitsiya faoliyatini rivojlantirish sohasida Jeffery D. Sachs tomonidan yozilgan *The Age of Sustainable Development* nomli asarda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va investitsiya faoliyatini samarali boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba batafsil tahlil qilingan [6]. Shuningdek, D. H. Meadows va uning hamkorlari tomonidan tayyorlangan *Limits to Growth: The 30-Year Update* asarida resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy rivojlanishni ekologik xavfsizlik bilan uyg'unlashtirish masalalari keng yoritilgan [7].

Mahalliy olimlardan Jo'rayev M. va Qodirov S. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston hududlarida investitsion faoliyatni rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinib, aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan [8][9]. Shuningdek, Hasanov A. tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiyotni ekologik jihatdan samarali boshqarish bo'yicha metodik yondashuvlar mamlakatimiz sharoitiga moslashtirilgan holda taklif etilgan bo'lib, bu jihatdan ahamiyatlidir [10].

O'zbekiston Respublikasining Namangan viloyati hokimligi tomonidan tayyorlangan hududning iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu tadqiqot mavzusining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi [11].

Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlardan Jahon bankining *Global Investment Competitiveness Report 2022–2023* hisobotida investitsiya faoliyatini faollashtirish bo'yicha xalqaro standartlar va ilg'or tajribalar batafsil yoritilgan bo'lib, bu metodik tavsiyalarni mintaqa sharoitida qo'llash imkoniyatlarini oshiradi [12].

Mahalliy iqtisodchilar Vahobov A.V. va Hajibakiev Sh.X. tomonidan tayyorlangan *Yashil iqtisodiyot* darsligida esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda yashil investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari keng qamrovli tahlil qilingan bo'lib, bu yo'nalishdagi amaliy tavsiyalar tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi [13].

Hududiy iqtisodiyot va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha olib borilgan xalqaro va mahalliy tadqiqotlarning natijalari ulardan foydalanish yo'llarini shakllantirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy jihatdan keng qamrovli asoslanib, mintaqada investitsiya faoliyatini faollashtirish jarayonlarini kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy manbalar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar, xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarning hisobotlari hamda statistik ma'lumotlardan foydalaniladi.

Shuningdek, iqtisodiy modellashtirish usullari, qiyosiy-tahliliy va statistik tahlil asosida Namangan viloyatida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari aniqlanadi va ular xalqaro ilg'or tajribalar bilan solishtiriladi. SWOT-tahlil orqali investitsiya faoliyatining mintaqaviy rivojlanishdagi kuchli va zaif

tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlar chuqur o'rganilib, investitsiyalarni jalb qilishning samarali strategiyalarini shakllantirish uchun zarur asoslar ishlab chiqiladi.

Ekspert baholari, induktiv va deduktiv tahlil usullari orqali mavjud nazariyalar amaliy holatlar bilan bog'lanadi va bu orqali tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi hamda amaliy samaradorligi ta'minlanadi. Ushbu maqola doirasida Namangan viloyatida investitsiya faoliyatini faollashtirish jarayonlarini iqtisodiy modellashtirish orqali tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy tajriba, xalqaro moliya institutlarining metodikalari hamda iqtisodiy modellashtirishning zamonaviy usullaridan foydalanilgan bo'lib, mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va hududda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash yo'nalishida aniq natijalarga erishish kutilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha turli xil yondashuvlar shakllanmoqda. Xalqaro miqyosda barqaror rivojlanish vazifalariga muvofiq investitsiya siyosatini shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. L. Fedulovning fikricha, ijtimoiy va ekologik investitsiyalarning faollashuvi global miqyosda kuzatilmoqda. Shu bilan birga, Yu. Makogon investitsiya faoliyatini ekologiya, iqtisodiy modernizatsiya va ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish bilan bog'laydi. O.V. Chernikovaning ta'kidlashicha, investitsiya jarayoni qanchalik faol bo'lsa, iqtisodiy rivojlanish shunchalik tez amalga oshadi.

Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiyot sohasida olib borilgan tadqiqotlar investitsiyalarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Investitsion iqlimni yaxshilash uchun davlat tomonidan turli soliq imtiyozlari, subsidiyalar va infratuzilmaviy loyihalarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda 2010–2024-yillar oralig'ida Namangan viloyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Dastlabki bosqichda investitsion faollikni belgilovchi 11 ta omil guruhi ajratildi: yalpi hududiy mahsulot, demografik holat, mehnat bozori, tadbirkorlik faoliyati, qurilish, transport va aloqa, tashqi va ichki savdo, ta'lim, fan va innovatsiyalar. Har bir guruhga tegishli ko'rsatkichlar normalashtirilib, standartlashtirish formulalari yordamida integral baholash ko'rsatkichi hisoblab chiqildi.

Korrelyatsiya tahlili orqali omillar o'zaro bog'liqlik darajasiga ko'ra baholandi. Ko'p omilli regressiya modeli EViews dasturida tuzilgan. Shahar aholisi ulushi (X_1), uy-joylarni foydalanishga topshirish (X_2) va ulgurji savdo korxonalarining aylanmasi (X_3) asosiy ta'sirchan omillar sifatida tanlab olingan.

Model:

$$\ln Y = -2.25 \ln X_1 + 1.08 \ln X_2 + 0.2 \ln X_3 + 27.1$$

Ushbu model investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmiga ta'sirini miqdoriy baholash imkonini beradi. Hozirgi bosqichda investitsiya faoliyati nafaqat investor, balki butun jamiyat ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan tobora kengroq yoritilmoqda. Investorning asosiy maqsadi — qo'yilgan resurslardan, xususan daromaddan, maksimal nafillik olishdir. Zamonaviy investitsiya nazariyalarida asosiy e'tibor ularning samaradorligi va ijtimoiy foydali natijalarga qaratilmoqda.

Iqtisodiy yo'naltirilgan investitsiyalar, avvalo, investitsiya faoliyati orqali qiymat ifodasida iqtisodiy samaradorlikka erishishga qaratilgan bo'lib, bunday investitsiyalar natijalari faqat daromad olish bilangina cheklanmaydi. Ular, shuningdek, ishlab chiqarish hajmini oshirish, modernizatsiyani rag'batlantirish, bozor raqobatbardoshligini kuchaytirish, to'lov balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, investitsion infratuzilmani rivojlantirish va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga ham ta'sir qiladi.

Baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyati respublika hududlari orasida yuqori investitsion muhit integral bahosiga ega. Qurilish va savdo infratuzilmasi investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi omillar sifatida belgilanmoqda. Modelda R-kvadrat (R^2) qiymati 0,99 dan oshgani, tanlangan omillar yuqori darajada izohlovchi kuchga ega ekanligini anglatadi.

$MAPE = 0,94\%$ va $TIC = 0,005$ bo'lib, bu prognoz natijalarining aniqligi yuqori darajada ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, shahar aholisi ulushining ortishi salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bu urbanizatsiya investitsion faollikka bevosita tormozlovchi ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Bu holat shaharsozlik siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini bildiradi.

Investitsiya faolligini faollashtirishda birlamchi omillarni aniqlash asosida qurilgan regressiya modeli mamlakatimizda mintaqaviy investitsiya siyosatini rejalashtirishda qo'llanilishi mumkin. Garchi model Namangan viloyati misolida tuzilgan bo'lsa-da, boshqa hududlarda ham moslashtirilgan ko'rsatkichlar orqali tatbiq etish imkoniyati mavjud.

Shahar aholisining ortishi kapital qo'yilmalarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Boshqa tomondan, qurilish va savdo sohalarining faollashuvi investitsion oqimni kuchli rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu natijalar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda sektorlararo muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, modelda foydalanilgan ko'rsatkichlar orasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlangan bo'lib, bu esa ularning amaliyotda qo'llanish imkoniyatini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatining investitsiya muhiti yuqori darajada bo'lib, bu holat jalb qilingan investitsiyalar hajmini oshirish uchun muqobil imkoniyatlar yaratadi. Quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Namangan viloyatida investitsiya faoliyatini faollashtirish mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli, investitsiya muhitini yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqilib, ularni samarali amalga oshirishda xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Investitsiya faoliyatini modellashtirish asosida o'tkazilgan SWOT-tahlil natijalariga ko'ra, hududdagi mavjud kuchli tomonlar (qulay geografik joylashuv, resurslar bilan ta'minlanganlik), zaif tomonlar (infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining sustligi), imkoniyatlar (xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyati, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari) va tahdidlar (investitsion muhitning beqarorligi) chuqur tahlil qilindi. Ushbu tahlillar asosida rivojlanish yo'nalishlari belgilandi.

3. Investitsiya faoliyatini faollashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish, soliq va subsidiyalar tizimini kengaytirish, investorlar uchun qulay investitsiya sharoitlarini yaratish hamda huquqiy asoslarni mustahkamlash bo'yicha amaliy choralar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

4. Tadqiqotda ishlab chiqilgan iqtisodiy modellashtirish asosidagi prognoz parametrlari asosida investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish imkoniyati mavjud. Bu esa investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish, mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytirish va barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Namangan viloyatida hududiy ekologik boshqaruv va investitsiya siyosatini hududlarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan holda shakllantirish zarur. Bu yondashuv hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishga hamda investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6. Investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda ekologik xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilish lozim. Shunga muvofiq, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish va ularning samaradorligini baholovchi aniq metodik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

7. Xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi ilg'or xalqaro metodikalarni joriy etish zarur. Bu esa viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar Namangan viloyatida investitsiya faoliyatini faollashtirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish va investitsion jozibadorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank Group. Global Investment Competitiveness Report 2022-2023. Washington, DC: World Bank Publications, 2023.

2. World Bank Group. Global Investment Competitiveness Report 2022-2023. Washington, DC: World Bank Publications, 2023.

3. Namangan viloyati hokimligi. Namangan viloyatining 2023-2027 yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi. Namangan: Viloyat hokimligi matbuot xizmati, 2023.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2022.

5. World Bank Group. Global Investment Competitiveness Report 2022-2023. Washington, DC: World Bank Publications, 2023.

6. Sachs J.D. The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, 2015.

7. Meadows D.H., Meadows D.L., Randers J. Limits to Growth: The 30-Year Update. Chelsea Green Publishing, 2004.

8. Jo'rayev M. Ekologik xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanish. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

9. Qodirov S. Barqaror rivojlanish nazariyasi va amaliyoti. Samarqand: SamDU, 2021.

10. Hasanov A. Iqtisodiyotni ekologik jihatdan samarali boshqarish. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020.

11. Namangan viloyati hokimligi. Namangan viloyatining 2023-2027-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi. Namangan: Viloyat hokimligi matbuot xizmati, 2023.

12. World Bank. Global Investment Competitiveness Report 2022-2023. Washington, DC: World Bank, 2023.

13. Vahobov A.V., Hajibakiev Sh.X. Yashil iqtisodiyot. Toshkent: Universitet, 2020.

14. Fedulov L. Xalqaro investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalari. Moskva, 2020.

15. Makogon Yu. Global investitsiya jarayonlari va ularning ekologik omillari. Kiyev, 2019.

16. Chernikova O.V. Mintaqaviy investitsion siyosat. Sankt-Peterburg, 2021.

17. Smith A. Regional Economic Development and Investment Strategies. London, 2022.

18. Johnson M. Foreign Direct Investment Trends in Emerging Markets. New York, 2023.

19. O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida" 01.03.2002-y. Qonuni. <https://lex.uz/docs/-22525>.

20. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" 26.04.1996 yildagi 223-I-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6567>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**